

26

Navro'z bayrami munosabati bilan yurtimizda
ichki turizmga chegirmalar e'lon qilindi

o'quvchi va
talabalarga - 15%

kollektivga (hamkasblar)
- 15%

"Afrosiyob" tezyurar poyezdi
yo'lovchilariga - 10%

YOSHLAR OVOZI

BIZ - KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

12 (16465)
2022-yil, 16-mart
chorshanba

/yoshlarovoziuz


/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Yoshlar siyosati Kompensatsiya qanday toifadagi
2-bet yosh ojalalarga to'lab beriladi?

Mahallada yoshlar yetakchisi Yetakchilar bilan ochiq
3-bet muloqot o'tkazildi

San'at San'atdagi
6-bet demokratiya



Prezidentimizning "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" -gi qarori asosida yoshlar bilan ishlashning vertikal - mahalla-tuman-viloyat-respublika tizimi yaratildi.

Respublikamizdagi barcha - 9 309 ta mahallada ochiq tanlov asosida yoshlar bilan ishlash tajribasiga ega, fidoyi va vatanparvar yetakchilar saralanib, ular bilan kunlik muloqot qilib borish tizimi yo'lg'a qo'yildi. Bu mahalla yoshlarini qiyab kelayotgan muammolarni o'z

vaqtida aniqlab, ularga tezkor yechim topish imkonini bermoqda. Ta'kidlash joizki, mahallalardagi yoshlar yetakchilari yoshi o'rtacha 26-30 yoshni tashkil etadi. Bu aynan ish va o'qish bilan band bo'limgagan yoshlar bilan oson til topisha oladigan yigit-qizlar yetakchi bo'lganini anglatadi. Yana bir muhim jihat, yetakchilarning ish tajribasi 1 yildan - 5 yilgacha. Ularning 7 738 nafari (83 foiz) olyi ma'lumotli, 5 939 nafari (64 foiz) harbiy xizmatni o'tagan. Jami yetakchilarning 8,8 foizi (820 nafari) xotin-qizlardan iborat.

“YOSHLAR BALANSI”
SHAKLLANTIRILMOQDA

batafsil **2-bet** →



IJARA XARAJATLARI UCHUN KOMPENSATSIYA QANDAY TOIFADAGI YOSH OILALARGA TO'LAB BERILADI?

1

Turar joy ijerasi kompensatsiyasi deyilganda nima tushuniladi? Mazkur masalada subsidiya tushunchasiga izoh bersangiz?

Turar joy ijerasi xarajatlari "Yoshlar daftari" jamg'armasi hisobidan qoplab beriladi.

2

Qaysi toifadagi yosh oilalarga beriladi?

"Yoshlar daftari" ga kiritilgan yosh oilalarga.

3

Yosh chegaralari bormi?

Yosh chegarasi- er-xotining ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmag'an oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o'ttiz yoshdan oshmag'an yolg'iz ota yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila. Shu jumladan, nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol);

4

Murojaat qilish tartibi qanday?

"Yoshlar daftari" ga kiritilgan yosh oilalar sektorlar rahbarlariga va Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo'lilmaliga ariza topshiradi.

5



Turar joy ijerasi uchun subsidiya olish ro'yxatiga kiritilgan yosh oilalarga bu mablag' qancha vaqt to'lab beriladi?

Turar joy ijerasi uchun subsidiya olish ro'yxatiga kiritilgan yosh oilalarga 12 oygacha turar joy uchun ijara kompensatsiyasi har oyda BHMning 3 baravaridan oshmag'an miqdorda to'lab berilishi mumkin.

6



Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilaning moddiy ahvoli yaxshilanishi bilan pul to'lab berish ham to'xtatilishi mumkinmi?

Sektor shtabi kotibi tomonidan ijara olingan xonadonda ijara oluvchi haqiqatda yashayotganligi har oyda bir marotaba organiladi. O'rganish jarayonida ijara oluvchi ijara olingan xonadonda doimiy yashamayotganligi aniqlangan taqdirda, bu haqda to'plangan asoslovchi hujjalarga muvoqiq, ijara to'lovi uchun kompensatsiya to'lash to'xtatiladi.

7

Kompensatsiya qanday ko'rinishda to'lab beriladi?

Ijara shartnomasiga asosan pul o'tkazish yo'lli bilan.



8

Murojaatni ko'rib chiqish muddatlari qancha?

Murojaat besh ish kunidan kechiktirmasdan ko'rib chiqiladi.

9

Qanday hujjalalar talab qilinadi?

Ariza hamda ijara shartnomasi asosida.

→ 1 "YOSHLAR BALANSI" SHAKLLANTIRILMOQDA

Ayni paytda 9 220 nafar (99 foiz) mahalla yetakchilar uchun xizmat xonalari va 7 476 nafariga (80,3 foiz) mebel jihozlari ajratildi. 6 879 nafariga (73,9 foiz) kompyuter jamlanmasi va 3 410 nafariga (36,6 foiz) planshetlar topshirildi, 7 840 nafar (84,2 foiz) internet tarmog'iqa ulandi.

- Yetakchilar tolim va mehnat bilan qamrab olinmagan 16-30 yosh oralig'idagi yoshlarni xatlovdan o'tkazib, ularning bandligi, talim, oilaviy, ijtimoiy va salomatlik holati bo'yicha "Yoshlar balansi"ni shakllantirmoqda, - deydi Yoshlar ishlari agentligi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari Sherzod Sharipov. - Bugunga

qadar 16-30 yoshdagagi fuqarolar "mahallabay" to'liq xatlovdan o'tkazilib, ularning 3 million 846 ming nafari (55,7 foiz) "Yoshlar balansi" elektron platformasiga kiritildi. Barcha ko'satkichilar elektron platformaga jamlanganida yoshlar muammolarini hal etish uchun asosiy e'tiborni qaysi tomonga yo'naltirish kerak ekani aniq ko'rinish turadi. Shu bilan birga yetakchilarning qanday faoliyat yuritayotganini, hududlar kesimidagi masalalar qachon va qanday hal etilayotganini aniq tahlil qilib borish imkoniyati ham paydo bo'ladi.

"Yoshlarning bo'sh vaqtini - yetakchingan ish vaqtini" tamoyili asosida mahalla yoshlarining

bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun 234 mingta tadbir o'tkazilib, 7,1 million nafar yosh qamrab olindi. Respublika komissiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Sirdaryo, Toshkent, Farg'ona, Andijon, Namangan, Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarini kompleks o'rganib, 24 mingga yaqin yoshlar yetakchilar, mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori va muktab direktorlari bilan ochia muloqot tashkil etdi. Muloqotlarda har bir tumanda faoliyat namunali deb topilgan 1 nafardan, jami 112 nafar yoshlar yetakchisi Milliy kadrlar zaxirasiга kiritilib, tuman(shahar) Sektor sardorlari etib belgilandi.

Joriy yilning 25-mart sanasiga qadar mahalla, tuman(shahar), viloyatlarda "Yoshlar dasturlari" hamda Respublika "Milliy dasturi" shakllantiriladi. Joriy yilning 1-apreliga qadar "Yoshlar balansi", "Yoshlar daftari"ning to'liq shakllantirilishi ko'zda tutilgan.



YETAKCHILAR BILAN OCHIQ MULOQOT O'TKAZILDI

"SHO'RBOZOR"DA "YOSHLAR BOGI"



Mahallalarda yoshlar bilan ishlashning yangicha mexanizmini joriy qilish, yoshlar yetakchilarining faoliyatini takomillashtirish maqsadida tashkil etilgan Respublika ishchi guruhni Qashqadaryo bo'ldi va viloyatdagi sektor rahbarlari, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari hamda maktab direktorlari bilan uchrashdi.

Yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimi va mexanizmini tashkil etish uchrashuvning asosiy maqsadi bo'ldi.

Respublika ishchi guruhni Qashqadaryo viloyatining Qarshi, Nishon, Mirishkor tumani va Qarshi shahrin sektor rahbarlari, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari hamda maktab direktorlari bilan ham ayni shunday ochiq muloqotlar o'tkazdi.

Chiroqchi tumani hokimligi binosida tashkil etilgan uchrashuv samimi ruhda o'tgani bilan ahamiyati bo'ldi. Respublika ishchi guruhni a'zolari yoshlar yetakchilarining fikr va takliflarini tinglab, bandlik hamda bo'sh vaqt yo'naliishida muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish, yigit-qizlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun sovrin va muhofotlar tashkil etish, buning uchun albatta, kerakli yordamlarni berish lozimligi kelishib olindi.

Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



Chiroqchi hamda Qamashi tumani asosan dehqonchilikka ixtisoslashgani e'tiborga olinib, hududdagi yoshlar dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun ularni turli ko'chatlar bilan ta'minlash borasida zarur vazifalar belgilandi.

Bu uchrashuv menda katta taassurot qoldirdi, - deydi Chiroqchi tumani "Sho'rbozor" MFY yetakchisi Eshmurot Toshov. - Mening mahallamizda tuman yoshlari uchun "Yoshlar festivali" tashkil qilish taklifim qo'llab-quvvatlandi. Mahallamizda "Yoshlar bog'i"ni barpo etish hamda barcha yosh ojalarga yetkazish uchun iqlim sharoitimizda yaxshi hosil beradigan 9000 ta olma, o'rak, bodom daraxti ko'chatlari bepul yetkazib beriladigan bo'ldi. Yoshlar festivalida faol ishtirok etadiganlarga berilishi ko'zda tutilgan sovg'alar ham havas qilarli: futbol musobaqalariga 8 ta televizor; ayollar o'tasidagi voleybol musobaqasiga 8 ta tikuv mashinasi, "zakovat" intellektual o'yini g'oliblariga planshetlar, "Yosh kitobxon" hamda "Yosh kitobxon oila" tanlovlari g'oliblariga kitoblar jamlanmasi, folklor, baxshichilik, musiqa, san'at, she'riyat yo'naliishlarida g'olib bo'lgan yoshlarga Toshkentga 3 kunlik bepul sayohat tashkilashtiriladigan bo'ldi.

MUHIM VAZIFALAR BELGILAB OLINDI

14-mart kuni Respublika ishchi guruhni Buxoro viloyatida bo'lib, viloyat va tuman sektor rahbarlari, Buxoro shahar, Buxoro, Romanit, Peshko' tumani yoshlar yetakchilari, hokim yordamchilari va maktab direktorlari bilan ochiq muloqot o'tkazdilar.

Muloqot chog'ida hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilarining yoshlar bilan ishlashda ahamiyat berishi zarur bo'lgan jihatlar haqida alohida to'xtalib o'tildi.

Buxoro shahrida mahallada yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari samaradorligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan seminarida yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev ishtirot etdi. Seminar davomida yangi tuyinlangan hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilariga mahallalarda yoshlar muammolari o'rGANISH, ular uchun yengilliklar yaratishda nimalarga e'tibor berish haqida tavsiyalar berildi.

Joriy etilgan yangi lavozimlarning asosiy maqsadi yoshlarning bandligini ta'minlash, ish va o'qish bilan band bol'magan yoshlar o'tasida turli sport musobaqalari, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, yoshlar o'tasida jinoyatchilikni kamaytirish lozimligi haqida tu-shunchalar berildi. Navro'z bayrami munosabati bilan mahalladagi yoshlar yetakchilariga qator tumانlarda uyushmagan yoshlar hamda aholi o'tasida milliy, sport o'yinlari tashkil qilish topshirildi.

YOSHLAR HAMDA AHOLI
ORTASIDA MILLIY, SPORT
O'YINLARI TASHKIL
QILISH TOPSHIRILDI.



#“YOSHLAR DAFTARI” NIMA?

Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyobi bo'lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borishning to'liq raqamlashtirilgan elektron tizimi.

✓ DAFTARGA KIRITILADI:

Har bir mahalladagi 18 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan quydagi toifalar:

- ijtimoiy himoyaga muhetoj, muommaloga va mehnatiga layoqatsiz, nogiron va salomatligida nuqsoni bo'lgan, boquvchisini yo'qotgan, yetim, mehrbonlik uylari va bolalar shaharchalarida tarbiyalangan, muqaddam sudlangan, probatsiya hisobida, profilaktik hisobda yoki ma'muriy nazorat ostida turuvchi ijtimoiy yordamga muhtoj yoshlar; “Temir daftar”ga kiruvchi oilalarning olyi ta'lif muassasasi tahsil oluvchi farzандлari;

• psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj, jamiyatda o'z o'rnnini topishga qiynalayotgan, turli xil muammolar sababli ijtimoiy reabilitsiyaga muhtoj yoshlar (suitsid sodir etishga harakat qilgan va boshqalar);

• iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj, tadbirdorlik yoki hunarmandchilik sohasida ish olib borish niyatida bo'lgan, o'zini o'zi band qilish istagidagi ishsiz yoshlar;

• ishsiz yoshlar, haq to'anadigan ish yoki ish haqi keltiradigan mashg'ulotga ega bo'lмаган, ish qidirayotgan va ishlashtiga tayyor bo'lgan yoshlar kiradi.



✓ “Yoshlar daftari”ga kirish uchu ariza qoldirish tartibi
Yoshlar o'z murojaatlarni:
 • www.yoshlardaftari.uz
 • 1093 qisqa raqami
 • yoshlar yetakchilari orqali yuborishi mumkin.

✓ 2021-YIL. MUROJAATLAR TAHLILI

Yoshlar daftariга kiritilganlar – **647 232**
Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar – **110 223**
Tadbirdorlik sohasi – **82 701**
Qishloq xo'jaligi sohasi – **131 835**
Kasb-hunar o'rganish – **21 846**
Ish o'rniga joylashish – **300 627**

✓ MUAMMOLAR, EHTIYOJLAR VA OIZIQISHLAR

“Yoshlar daftari” doirasida yoshlarning muammolari qanday o'rganiladi?

- Yoshlar yetakchilari mahallalarda “Yoshlar balansi”ni shakllantirish maqsadida o'tkazilayotgan uyma-uy xatlovlar orqali;
- Yoshlarning yoshlarning elektron platformaga murojaatlari orqali;

• Yoshlarning yoshlarning elektron platformaga murojaatlari orqali;



✓ AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

- 424 437 nafar yoshga yer ajratildi
- 192 826 nafar yosh doimiy ish o'rinnariga joylashtirildi
- 57 889 nafariga asbob-uskuna va mehnat qorollari ajratish uchun subsidiyalar berildi
- 57 788 nafariga imtiyozli kredit ajratildi
- 17 453 nafarining o'qishi uchun kontrakt pullari to'lab berildi
- 11 548 nafarining haydovchilikka o'qitish va safarbarlik chiqiruv rezervi xizmat badallari qoplab berildi
- 56 881 nafariga boshqa turdag'i yordamlar ko'satildi.

Feruz ABLAYAROV,
Yoshlar ishlari agentligining
Yoshlar bandligini ta'minlash
va tadbirdorligini rivojlantirish
boshqarmasi boshlig'i



“Yoshlar daftari” elektron platformasiga kelib tushgan onlayn arizalar

133 954

Qabul
qilingan
90 042
(67,2 %)

Rad
etilgan
37 653
(28,1 %)

Ko'rib
chiqilmoqda
6 259
(4,7 %)

✓ “YOSHLAR DAFTARI” DAN CHIQARISH TARTIBI

- Bandligi ta'minlanib, doimiy daromad manbayiga ega bo'lganda;
- Moddiy yordam ko'satish orqali muammosi hal etilganda;
- To'lov-kontrakt summasi belgilangan taribida to'lab berilganda;
- Malakalib tibbiy xizmat ko'satilganda;
- To'liq davlat ta'minotiga olganda;
- Aniqlangan boshqa muammolar qonuniy hal etilganda;
- Boshqa davlatga doimiy yashash uchun chiqib ketganda;
- O'z arizasiga ko'ra;
- “Yoshlar daftari”ga noqonuniy kiritish holati aniqlanganda;
- Tadbirdorlik faoliyati hamda o'zini o'zi band qilish maqsadida noturar joyning ijara xarajatlari qoplanganda;
- Sudning ozodlikidan mahrum etishni nazarda tutuvchi hukmi qonuniy kuchga kirdganda;
- “Yoshlar daftari”ga ikki va undan ortiq masalalarni hal etish uchun kiritilgan yoshlarning barcha masalalari to'liq hal etilishi daftardan chiqarish uchun asos bo'ladi.

✓ 2022-YILDA REJALASHTIRILGAN ISHLAR

- Har bir xonodon va mahalla kesimida yoshlarning taklif va muammolari o'rganilib, “Yoshlar balansi” shakllantiriladi.
- Mahallalar kesimida “Yoshlar dasturi” ishlab chiqilib, ijrosi yo'lda qo'yiladi.
- “Yoshlar daftari” orqali yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari bartaraf etiladi.

AMALIY ISHLARNI BOSHLADIK



“**B**

Bu lavozimga kelishimdan avval talim sohasida ishlaganman. Yoshlar nimalarga qiziqishini, ularning fikrini jaib qilishni uncha-muncha bila-man. Shuning uchun bu lavozim mas'uliyati meni u qadar cho'chitmadni.

Yetakchilikka saylangandan keyin avvalo, yoshlar balansini shakllantirishga kirishdim. Bunda ularning yosh va qiziqishlarini asosiy mezon qilib oldim. Birinchi galda qancha yoshlarning ishsiz ekanligi bilan qiziqdirm. Uyma-uy kirib o'rganishim natijasida mahalladagi 41 nafar yoshlarning ishga muhtojligi ma'lum bo'ldi. Avvalo ularni qanday qilib ish bilan ta'minlash mumkinligini o'ylab ko'rdim. Birinchi galda ularning 27 nafarini "Yoshlar daftari" ga ro'yxtatga oldim. Hozir ularning 22 nafariga 10 sotixdan yer berildi va ish bilan ta'minlandi.

Biror ish bilan mashg'ul yoshni ham e'tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qildim. Maktab yoki olyi ta'limalda tahsil olayotganlarning ham holatini o'rganib chiqdim. Ulardan biri kontrakt pulini to'lashga qiynalayotganini aniqladim. Shundan so'ng bizga berilgan vakolatlar dan foydalanib, uning shartnomaga pulining 50 foizini subsidiya

Shahlo G'AYBULLAYEVA,
Kosonsoy tumanidagi "Iftixon" mahallasi yoshlar yetakchisi

asosida to'lab berdik. Yana bir yoshni haydovchilik guvohnomasini olish uchun o'qitdik. Uning o'qishi uchun ham pul to'ladik.

Ishsiz yoshlar qiziqishidan ke-lib chiqib, 2 nafar yoshni mono markazda hunar egallashi uchun o'qishga yubordik. Ular sertifikat olgach, o'rorganan hunari bilan shug'ullanishi uchun subsidiya asosida yordam berishni o'yalyapmiz. Yana bir sharoiti og'ir yoshimizga hokim yordamchisi bilan birgalikda issiqxonaga tashkil qilib berish harakatidamiz.

Yoshlarning bo'sh vaqtini unumli o'tkazish maqsadida mahallamizda turli sport to'garaklari ham joriy qildik. Futbolga qiziqadigan yigitlarni yoshi asosida guruhlarga ajratib, turnir tashkil qildik. Keyinchalik bu turnirga qo'shni mahalla yoshlarini ham jaib qilindi. Turnir juda ko'p yoshlarni qamrab oldi. Mahallamizda ayollardan iborat voleybol jamosini ham shakllantirdik. Bu jamoa fevral oyida 59 ta tuman vakillari ishtirokida o'tgan turnirda 2-o'rinni qo'lg'a kiritdi.

Madaniyat va san'atga qiziqadigan yoshlardan qo'g'irchoq teatr jamoasini shakllantirganmiz. Birgalikda "Do'stlar bog'i" degan ertakni sahnadashtirib, mahalla xo-nardonlaridan birida aholi va bolajonlarga taqdim etdik.

Jonli tomoshadan bolalarning ko'ngli tag'dek ko'tarildi. Hozir teatr jamoasi uzlusiz faoliyat olib bormoqda.

Mahalla ahlining kitob o'qishga qiziqishlarini shakllantirishga ham harakat qilyapman.

Endigi rejalarimdan biri mahallamizda yoshlar radiosini tashkil qilish. Buning uchun bizda barcha imkoniyatlar bor. Radioga, jurnalistikaga qiziqadigan ishsiz yoshlarni jaib qilmoqchiman. Efirlarni yosh jurnalistlar to'garagi a'zolari olib boradi.

Vakolatlarimiz keng, qolimda imkoniyat ko'p. Shuning uchun ish stolimga o'tirishim bilan oldimga kelayotgan yoshlarning keti uzilmaydi. Biri si o'z muammosi, boshqasi o'z taklifini bildiradi. Ular bilan birga masalani o'rganamiz va yechim qidiramiz. Takliflariga chora topilgach, bizdan mamnun holda ketishadi. Shunday paytda mahallamiz yoshlariga yordam qo'lini cho'za olganimdan xursand bo'laman.

Albatta, bunda menqa berilgan 13 ta vakolat asqotadi. Doim mahallamiz yoshlarining muammosini o'z muammodek hal qilishga harakat qilaman. Niyatim mahallamni Respublikamiz mahallalari orasida eng namunali mahallalar qatoriga olib chiqishdir.

Ozodbek YO'L DOSHEV: 66 IMKONIYATLAR KO'P, FOYDALANUVCHILAR KERAK!

Yoshim 23 da. Navoiy viloyati Karmana tumani "Paxtaobod" mahallasida yashayman. Tadbirkorman. Asosiy maqsadim ekotizimni yaratish maqsadida terak yetishtirishdan iborat. Yana imonariya, issiqxonachilik va chorvachilik bilan ham shug'ullanaman.

Terak daraxti qurilish uchun juda kerakli xomashyo. Boshida exotozor sifatida bir qator qilib daraxt ekkandim. Asta-sekin ko'chatlarni ko'paytirdim. Teraklar yetilgach, mijozlar o'zlarini qidirib keladigan bo'lishdi. Bu biznesni shunday yo'ga qo'yganman.

Hozir har bitta kesilgan terak daraxtini o'ttacha 70-100 ming so'mdan sotaman. Terakning afzalligi shundaki, kesib olingandan keyin ildizidan yana o'sib chiqavera di. Hozir 4 mingga yaqin ko'chatimiz bor. Taxminan 5-6 yilda keyin tayyor holatga keladi. Qancha ko'p o'stirilsa, sifati va narxi ham oshib boradi. 4 mingta terak ko'chatidan 6-7 yil ichida 300-400 million so'm foya qilish mumkin. Bu yiliغا 70-80 milliondan to'g'ri keladi.



Terak o'z atrofida mikroklimat hosil qiladi. Barglari yerga to'kilgandan keyin tabiiy o'g'it vazifasini o'taydi. Limonariya uchun 6 sotix joy ajratganmiz. Bu yerda 90 tup ko'chatimiz bor. 4 yoshli limonlarimiz 30-50 kilogramgacha hosil bera-di. Keyingi yillardan bu ko'satkichni 100 kilogramgacha yetkazish niyatimiz bor. Limonni parvarish qilish unchalik qiyin emas, lekin o'ziga yarasha jihatlari bor. Vaqtida mineral o'g'ilari ni berish, sovuqdan asrash, issiqxonadagi haroratni bir me'yorda saqlash kerak.

Bundan tashqari, 50 bosh chorvamiz bor. Chorvachilikni ham kredit asosida boshlaganmiz. Endilikda Kaliforniya qizil chuvalchanglarini olib kelib, mineral o'g'it ishlab chiqarishni ham yo'lg'a qo'yamoqchimiz.

Yoshlar uchun imkoniyatlar ko'p. Imkoniyati yo'q yoshlarga yer ajratib berilayti. Bankdan kredit olib dehqonchilik, limonchilik bilan ham shug'ullanish mumkin. Xullas, harakat qilgan odamga imkoniyatlar, menimcha, yetarli!

SAN'ATDAGI DEMOKRATIYA:

"STREET ART" NI QO'LLAB-QUVVATFLASH VA OTLIKELDI


JAMIYAT NIMA UCHUN
SHU PAYTGACHA BU
SAN'ATNI QABUL QILA
OLMAGAN?

Ingлиз tilida "ko'cha san'ati" ma'ninosini angalatuvchi, san'atning urbanistik uslubi - "Street art" xorijda bir necha yillarda avval, O'zbekistonda esa endi-endi ko'zga tashlanmoqda.

Bir qarashda bu san'atning hech kimiga zarari yo'qdek, aslida "Street art" ko'chalarni shunchaki chiroylari, rang-barang rasmilar bilan bezash emas, devorlarga chizilgan har bir rasm zamirida jamiyatagi bugungi dolzarb muammolar va ularning yechimiga biror ishora bo'ladi.

Albatta, bu hammaga ham yoqmasligi mumkin. San'at asari darajasidagi "ko'cha san'ati" muxlislarining ta'kidlashicha, bu san'at olamidagi demokratiyaning yorqin ko'rinishi odatda, ish yoki o'qishdagisi kundalik muammolar sabab muzej, san'at galereyalari yoki ko'rgazmalarga borishga doim ham vaqt, mablag' topa olmasligimiz mumkin.

Biroq odamlar bilan gavjum joylar - bozorlar, metro, ko'p qavatlari



uylar, shahar ko'chalari chizib ketilgan suratlar doim diqqat va qiziqish markazida turadi.

Ammo afsuski, oxirgi vaqtarda bu manzaralar "umri" uzoqqa chozilmayapti.

Surat yonida rasmga tushish chellange darajasiga chiqqan, muktab, bog'cha o'quvchilar ekskursiyalar tashkillashtira boshlangan ayrim suratlar bo'yab - o'chirib tashlanmoqda. Hayratlanarli, shu kungacha shahar ko'chalari, metro vestibullarida yoshlarning "dil izhorlari", hatto turli haqorda so'zlari ifodalangan yozuvlar ham bu qadar e'tibor tortmagan, ta'qib qilinmagan edi. Xo'sh, bu holatlarga qanday izoh berish mumkin? Devordagi suratni o'chirish bilan muammoga yechim topilib qoladimi yoki aksincha, muammolarni yashirishga urinishmi bu?

UzAUTO Motors monopoliyasi (2021-yil 4-sentabrda chizildi, 5-sentabrda o'chirilgan), benzin narxlarining keskin ko'tarilishi (19-noyabr kuni chizilib, oradan bir-necha soat o'tgach, yo'q qilin-gan) kabi dolzarb hayotiy muammolarga bag'iishlangan yoki Albert Eynsteynning qo'llovushtirib turgani tasvirlangan (qisman uzoq umr ko'rgan surat, 2020-yil avgust-2022-yil fevral) suratlar taqdiri bizga ma'lum.

DAROMAD TOPISH MUMKINMI?

Suratlarni devorga san'at asari darajasida ishlay oladigan iste'dod egalari qonuniy asosda yaxshigina daromad olishi ham mumkinligini eslatib qo'yamoqchimiz. Masalan, "Ustabor.uz" saytida oshxonasi, mehmonxona, yotoqxona yoki bolalar xonasasi devoriga turli rasmilarini chizish uchun to'lanadigan haq 286 mingdan qarib 500 ming so'mga-chi. Suratning hajmi, murakkabligiga qarab yana ham oshishi saytda alohida ta'kidlangan.

“
O'Z ISTE'DODI VA
SALOHIYATINI NAMOYON
ETA OLGAN ISTE'DOD
SOHIBLARINING MEHNATI,
ALBATTA, MUNOSIB
E'TIBOR HAMDA QADR
TOPISHI KERAK. AXIR
ULAR YOMONLIKNI
TARG'IB QILISHMAYAPTI,
ISTASHMAYAPTI.



QAYERGA CHIZISH MUMKIN EMAS?

Chilonzor tumanidagi bir nechta "Street art"lari bilan tanilib ulgurgan, sirli ko'cha rassomi, "Inkuzart" nomi bilan ijod qilayotgan Abdurahmon ismli yigit ijodiga mansub suratlar e'tibor markazida turgan bir vaqtda, bundan o'z maqsadi yo'lida foydalishiga urinayotganlar ham, afsuski, yo'q emas.

Bu nafaqat rassomning, balki "street art" muxlislarining ham ta'bini xira qilapti. Masalan, navbatdagi surat chizilgan joyga turli mahsulot reklamalarini joylashtirishga urinish va shu bilan mahsulotlarni ommalashtirish, targ'ib etish. Hatto orasida giyohvand moddalar va psixotrop dori vositalarini ham ko'rish mumkin.

Haqiqiy "street art" shunday yo'nalishki, u hudud va chegara bilmaydi. Ammo bu xohlagan joyga rasm chizaverish mumkin degani emas, albatta.

Masalan, ta'ilim muassasalari, davlat boshqaruvi idoralari, masjid va ibodatxonalar, xususiy binolarga surat chizish uchun eng kamida inson farotsatsiz (bezori) bo'lishi kerak. Garchi, yurtimizda hali bu kabi holatlari kuzatilmayotgan bo'lsa-da, har narsani chegarasi borligini unutmaslik shart.

QONUNDA NIMA DEYILGAN?!

Tarixi tosh asriga borib taqaluvchi va ilk na'munalar qoyatoshdagi bitiklar hisoblanadigan "street art" ayrim davlatlarda endi kurtak ochayotgan bo'lsa, ayrimlarda "qullab-yashnadi".

Ammo bundan bir necha asrlar avvalgi qoyatoshga surat chizgan neandertal odam bilan bugun ko'chalar va devorlarga ijod na'mularini muxlayotgan XXI asr kishilari o'ttasida juda katta farq bor. Masalan, biz birinchisiga qarab, ming yilliklar avvalgi hayot nafasini his etsak, zamonaev chizgilarida ayrim hollar da jinoyatchilik, behayoliq, zo'ravonlik, tajovuz qora ranglar bilan tasvirlanib, oshkorra targ'ib etilayotganiga guvoh bo'lismiz hech gap emas. Bunday vaqtida uni "Vandalizm" yoki "Ko'cha san'ati" deb atash to'qiriroq boladi.

Chegaralar buzilg'an joyda qonunlar o'z kuchini ko'sata boshlaydi. Masalan, Meksikada tarixiy obidalar, ibodatxonalar va ehrom-larga jiddiy zarar yetkazayotgani uchun 2007-yil kongressda burchuchun 10 yillik (!) qamoq jazosi yoki katta miqdorda jarima solish haqiga taklif kiritildi. Belarusda esa qamoq jazosi allaqachon joriy etilgan.

Quyushqondan chiqib ketgan, "san'at" sabab dunyoning bir qator katta shaharlarida bu "jod na'munalari"ni o'chirish uchun yiliga qarib yaxshi 20 million dollar sifarlani, tozalash ishlariiga maxsus ishchilar jalb etildi.

Ammo afsuski, bu "rassom"lar ning ishtiyogini cheklash yoki insofga keltirish o'rninga yana-da ilhom baxsh etayotgani uchun, qisman nazorat o'matish maqsadida Xitoy, Avstraliya, Vengriya va Rossiya da hukumat tomonidan ularga maxsus hududlar ajratilgan.

ODAMLAR BILAN
GAVJUM JOYLAR –
BOZORLAR, METRO,
KO'P QAVATLI
UYLAR, SHAHAR
KO'CHALARIGA CHIZIB
KETILGAN SURATLAR
DOIM DIQQAT VA
QIZIQISH MARKAZIDA
TURADI.

Ziyoda
RAHIMBOYEV




RUXSAT OLİSH ZARAR
OLMAYDI.

O'zbekiston Respublikasi qonun-chiligidagi hozircha bu uchun qamoaq jazosi yoki katta miqdordagi jarima ko'zda tutilmagan bol'sa-da, chegarani unutib qo'ymaslik lozim. Masalan, yugoridagi nomi sanab o'tilgan muassasalar hududidagi binolarga rasm chizishni oqlab bo'lmaydi. Boshqa hudud bo'lgan taqdirda surʼatni chizishdan avval, agar hudud biror tashkilot yoki korxonaga te- gishli bol'sa, ruxsat olish zarar qilmaydi. Albatta, har qanday profesional yoki havaskor rassom ham peshona teri singgan ishlari bosh-qalar bir necha daqiqada o'chirib tashlashini istamasa kerak.

Buni biz ham istamaymiz! O'z
iste'dodi. va salohiyatini namoyon
eta olgan iste'dod sohiblaringin
mehnati, albatta, munosib e'tibor
hamda qadr topishi kerak. Axir ulan
yomonlikni targ'iib qilishmayapti
istashmayapti.

Prezidentimiz 18-fevral kuni poytaxtimizdagı Yangihayot tumaniga tashrifи davomida "Do'stlik" mahallasi dagı, muralni maqtab, "Nega ham mayoqqa shunday qilmaysızlar? Bu mural ham odamning kayfiyatiga ijobiy ta'sir qiladi" degan chaqirig'idan sezish qiyin emaski, "Street art" ni rivojiga lanqtilishga alohida e'tibor va ko'mak berish tufayli iste'dodli yoshlarga, to'g'ri yo'nallish ko'tarish, hatto mu-nosib ish orni yaratish ham mumkin hafazimizda buning vaqtı keldi!

? B i l a s i z m i ?



Aholining ayrim toifalariga nisbatan shaxsga doimiy ma'lumotlarni yig'ish

Aholini ro'yxatga olishni o'tkazish sanasida chaqiruv asosida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar, shuningdek, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga jalb etilgan harbiy xizmatchilar va ularning yopiq hududlarda yashayotgan oila a'zosi bol'gan respondentlar haqidagi shaxsiga doir ma'lumotlarni yig'ish harbiy qism komandirli yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, aholini ro'yxatga olishni o'tkazish sa-nasida:

- bolalar internatlarida, tarbiya muassasalarida
 - Bolalar shaharchalari da;
 - ijtimoiy muassasalarda;
 - diniy muassasalarda;
 - shifoxonalarda va boshqa sog'lqini saqlash tashkilotlarida;
 - ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlarida;
 - qamoqda saqlash joylarida, tergov hibsxonasida axloq tuzatish muassasalarida va maxsus muassasalarda yashayotgan (bo'lgan) respondentlar to'g'risi-dagi shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish ushbu qismda nazarda tutilgan muassasalar hamda tashkilotlari ma'muriyatlarini tomonidan amalda oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilingan chet davlatlar doimiy vakolatxonalarining, xalqaro, hukumatlararo tashkilotlar va chet davlatlar hukumat tashkilotlari vakolatxonalarining xodimlari bo'lgan chet le fuqarolari hamda ularning oila a'zolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq diplomatik imtiyozlarga va immunitetga ega bo'lgan boshqa shaxslar o'rxxata qolimaydi.

Ruslan QAHRAMONOV



Sariosiyo tumani "Alisher Navoiy" mahallasida yashovchi mahalliy aholi To'palangdaryo yoqasidan qadimiy tangalar tonib, bu hadda tuman hokimligiga ma'lum ailaan.

Daryo qirg'og'idan topilgan bu tangalar Mirzo Ulug'bek hukm-ronligining turli davrlarida 1420-1436-yillar oralig'iда Samarqandda zarb qilingan. Tangalarda olti qirrali yulduz va turli astronomik belgilardan egsitan. Bu hukmdorning o'zi bevosita ushu tangalarin zarb etishda bosh-qosh bo'lganligi, o'sha davrda matematika va astronomiya yugori darajada rivojlanganini ko'satadi.

Topilmalar Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi madaniy meros agentliqida saqlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Xorazm viloyat boshqarmasi jamoasi

Shu kunlarda butun borliqni yasharish va yangilanish ayyomi — Navro'z shukuh kezib yuribdi. Pir-u badavlat otaxon va onaxonlarimiz bu kurnaga yetkazganiga shukronalar aytib, Allohdan yurtimizga tinchlik-xotirjamlik, dasturxonlarimizga to'kin-sochinlik so'rab, duoga qo'l ochmoqda.

Uchbu fursatdan foydalanib, butun xalqimizni, shu jumladan, borchalab-yoshlarimizni Navro'z bayrami bilan tabriklaymiz! Yurtimizda Uchinchchi renessans davriga po'ydevor qo'yishdek ulkan maqsadga erishish yo'lida sizlarga yangi muvaffaqiyatlar yor bo'lishini tilaymiz!



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Iqbol PARDAYEVA

Musahhihlar:
Shahribonu RAHMATOVA,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va omraviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta yozuvchisi tomonidan konservativ markazida feridi va sahifalandi. Tahririyot mafili: 100080, Toshkent, Murbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Shorg" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma-xonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi — 2 bosma tabog'. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxa, buyurtma G-355. Adadi — 10500. Boshishga topshirish vaqt — 21.00. Topshirildi — 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling.



1 2 3 4 5 6